

**INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI SHAXS FE'L-ATVORINI  
IFODALOVCHI SIFATLARNING LUG'ATLARDA BERILISHI VA  
MUAMMOLARI**

**Elmurodova Feruza Nasrullayevna**  
TATU Qarshi filiali mustaqil tadqiqotchisi  
F.f.d.professor B.Mengliyev tahriri asosida  
e-mail: [feruza.elmurodova.90@bk.ru](mailto:feruza.elmurodova.90@bk.ru)  
tel: +99891 3202333

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida shaxs belgisini ifodalovchi sifatlarning leksikografik talqini til o'rganish va shaxsga murojaat qilishning muhim jihatlari bayon etilgan. Ushbu sifatlarni tushunish va aniq belgilash samarali muloqotga va shaxslarning shaxsiy fazilatlarini chuqurroq tushunishga yordam beradi. O'zbek tilida shaxs belgisini ifodalovchi sifatlarning leksikografik jihatdan yo'lga qo'yilishi tilshunoslik oldida turgan o'ziga xos muammo va masalalarni sinchiklab ko'rib chiqishni taqozo etadi.

**Kalit so'zlar:** leksikografiya, lug'at texnikasi, tilshunoslik, funksional va pragmatik xususiyatlari, mohirlik bilan lug'at tuzish san'ati.

**Аннотация:** В данной статье описывается лексикографическая интерпретация прилагательных, представляющих личный признак в английском и узбекском языках, важные аспекты изучения языка и обращения к человеку. Понимание и четкое определение этих качеств помогает в эффективном общении и более глубоком понимании личностных качеств людей. Лексикографическое установление прилагательных, обозначающих личный признак, в узбекском языке требует внимательного рассмотрения конкретных проблем и вопросов, стоящих перед языкознанием.

**Ключевые слова:** лексикография, лексические приемы, языкознание, функционально-прагматические особенности, искусство грамотного словарного образования.

**Annotation:** This article describes the lexicographic interpretation of adjectives representing a personal attribute in English and Uzbek, important aspects of language learning and addressing a person. Understanding and clearly defining these qualities helps in effective communication and a deeper understanding of the personal qualities of people. The lexicographic establishment of adjectives denoting a personal attribute in the Uzbek language requires careful consideration of specific problems and issues facing linguistics.

**Key words:** lexicography, lexical devices, linguistics, functional and pragmatic features, the art of competent vocabulary education.

Yangi asr insoniyat jamiyatida mavjud tushunchalarning inqilobiy islohotlarga yuz tutishi, yangicha shakl va ko'rinish kasb etishi bilan xarakterlanadi. Muloqot, ijtimoiy munosabatlar, iqtisodiy operatsiyalar, xizmat ko'rsatish, bilim berish va olish hamda hayotning boshqa barcha jabhasidagi ma'lum qirralar "raqamli" tabiatga ega bo'ldi. Bu transformatsiya leksikografiyada asosiy yo'naltiruvchi kuch sifatida kompyuter va korpus



**RAUF PARFI IJODINING  
MA'NAVIIY-MA'RIFIY AHAMIYATI**  
Respublika ilmiy-nazariy anjumani

lingvistikasining maydonga chiqishi bilan belgilandi. Ammo o'lkamiz lug'atshunosligi bu sayqallanishga yuz tutmagani achinarli holat.

Mustaqillik davrida o'zbek lug'atchiligi turli yo'nalish va mavzularda rivojlanib borgani holda zamon taqozosi bilan ayrim muammolar ham ko'zga tashlanib qoldi. Hatto leksikografiya fanining asl mohiyati va vakolatlari doirasi ham nisbatan keyinroq e'tirof etildi.

M.Iriskulov "leksikografiya leksikologiyaning lug'at tuzish bilan shug'ullanadigan bo'limidir", – deydi. Bu izohdan bir necha o'n yillar oldin hukm surgan leksikografiyaga nisbatan tor qarash anglashilib turibdi. Darhaqiqat, dastlab leksikografiyaning vazifalari doirasiga juda tor ko'lamdagi operatsiyalar kiritilgan bo'lib, u "lug'at texnikasi" sifatida tilga olingan va hatto maxsus oliygo'ha ma'lumotiga ega bo'lmagan ixtiyoriy shaxs tomonidan amalga oshirilishi mumkin bo'lgan malakaga tenglashtirilgan. Ayniqsa, g'arb nashrlarida unga "mohirlik bilan lug'at tuzish san'ati" sifatida qarashlar keng quloq yozgandi.[1]

Lug'atlar - tom ma'noda har qanday xalqning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy jihatdan erishgan natijalari, yuksalishi va evolyutsiyasini tilda aks ettirib turuvchi fenomen. Lug'atning ahamiyati muayyan millatning tili va lug'at orqali shakllanadigan strukturasi bilan cheklanib qolmaydi, balki u orqali kashf etiladigan madaniyati, o'tmishi, turmush tarzi bilan ham belgilanadi.

Istiqlol davri o'zbek tilining taraqqiyot masalalari o'zining ko'p jihatlari bilan tilshunoslarning diqqat markazida bo'lib kelyapti. Ular orasida tilning leksik sathi bilan aloqador ishlarning mazmun ko'lami boshqalariga qaraganda salmoqliroq. Tabiiyki, leksika borliq manzarasini insonlarga til orqali ifodalashda yetakchi rol vazifasini bajaradi hamda atrofda paydo bo'lgan innovatsiyalarni o'zida tez shakllantira oladi. Albatta, bunday innovatsiyalar til va tafakkur mutanosibligida yuz beradi. Biroq bu holatda tafakkurni ideallashtirib, tilni unga shakl sifatida bog'lab qo'yilishi ham to'g'ri emas. Sh.Safarov yozganidek, "aslida "noverbal tafakkur"ning qanday yuzaga kelishini tasavvur qilish qiyin, chunki borliq haqidagi fikrni faqat lisoniy shakllar vositasida o'qiy olamiz. Shunday ekan, tafakkur faoliyatini uning maqsadidan ajratib qo'yish insofdan emas".[2] Shuningdek, N.Mahmudov ta'biri bilan aytganda, shubhasizki, milliy ong milliy tilsiz mavjud bo'la olmaydi, bu esa tilshunoslikda e'tirof etib bo'lingan haqiqat.[3]

Leksikografiyaning fan sifatida tan olinishiga uzoq vaqt ketmadi. 2006 yilgi o'quv nashrida "leksikografiya tilshunoslikning bir qismi bo'lib, ma'lum



**RAUF PARFI IJODINING  
MA'NAViy-MA'RIFIY AHAMIYATI**  
Respublika ilmiy-nazariy anjumani

bir tilga xos soʻzlarni toʻplash, ularni muayyan bir sistemaga solish va lugʻat tarzida nashr etish haqidagi hamda lugʻat va uning tuzilishi, lugʻat turlari toʻgʻrisidagi boʻlimidir” [4], – deya izoh beriladi.

Leksikografiyaning tilshunoslikning nisbatan yosh sohasi ekanligiga isbot tariqasida L.P.Stupin bu terminning mashhur Britannika va Amerikana ensiklopediyalarida tilga olinmaganligini keltiradi.[5]

Leksikografiyaning oʻz tadqiqot predmeti, ilmiy va metodik prinsiplari, oʻz nazariy problematikasi hamda boshqa fanlar silsilasida oʻz oʻrni boʻlgan alohida fan ekanligi gʻoyasini ilk bora qatʻiyan olgʻa surgan tilshunos olim sifatida Sherba tan olingan.[6]

Shunday qilib, tilshunoslikning alohida boʻlimi tariqasida tan olingan leksikografiyaning vakolatlari doirasiga quyidagi vazifalar kiradi:[7]

- 1) lugʻat tuzish prinsiplari va metodikasini ishlab chiqish;
- 2) lugʻat turlari va tiplarini aniqlash;
- 3) lugʻatshunoslarning ishini tashkil qilish;
- 4) lugʻat tuzish uchun asos boʻladigan kartoteka fondini yaratish;
- 5) lugʻatchilik tarixini oʻrganish;
- 6) lugʻat tuzish bilan shugʻullanish.

Tilshunoslar lugʻatlarning ahamiyatini funksional va pragmatik xususiyatlariga koʻra turlicha vazifalar asosida belgilaydilar. Shunga qaramay, ulardan eng muhimlari sifatida “ona tili va boshqa tillarni oʻrgatish, ona tilini tasvirlash va meʼyorlashtirish, tillar va madaniyatlararo munosabatni taʼminlash, til leksikasini ilmiy tekshirish va talqin qilish”[8] kabilar ustuvor tendensiyalar sanaladi.

Maqsad va vazifasiga koʻra leksikografiya ikkiga boʻlinadi:

a) ilmiy leksikografiya lugʻatchilikning nazariy masalasi bilan shugʻullanadi;

b) amaliy leksikografiya bevosita lugʻat tuzish ishi bilan mashgʻul boʻladi.

Lugʻat maqsadi va moʻljaliga koʻra ikkiga boʻlinadi:

- 1) umumiy lugʻat;
- 2) maxsus lugʻat.

Umumiy lugʻat keng oʻquvchilar ommasiga, maxsus lugʻat esa tor doiradagi kishilar, alohida soha mutaxassislariga moʻljallangan boʻladi.

Har ikkala tur lugʻat ham oʻz oʻrnida yana ikkitaga boʻlinadi:

- 1) ensiklopedik lugʻat;
- 2) filologik lugʻat.



**RAUF PARFI IJODINING  
MA'NAVIIY-MA'RIFIY AHAMIYATI**  
Respublika ilmiy-nazariy anjumani

Demak, lugʻatni umumiy ensiklopedik lugʻat va maxsus ensiklopedik lugʻat, umumiy filologik lugʻat va maxsus filologik lugʻatga boʻlib oʻrganish maqsadga muvofiq va qulay.

**Umumiy filologik lugʻat** barcha soha kishilari, keng foydalanuvchilar ommasiga moʻljallangan izohli, imlo, orfoepik, tarjima lugʻatdir. Umumiy izohli lugʻatda lugʻaviy birlikning barcha — grammatik, uslubiy, frazeologik birlik tarkibida qatnashishi, omonimligi, qaysi tildan oʻzlashganlik belgilari koʻrsatiladi.

**Maxsus filologik lugʻat** tor oʻquvchilar ommasi – tilshunoslik bilan shugʻullanuvchilar va boshqa ilmiy tadqiqotchilarga moʻljallangan boʻladi. Oʻzbek tilining morfem, chastotali, ters, oʻzlashma soʻzlar, frazeologizm, sinonimlar, antonimlar, omonimlar, dialektizm, terminologik, etimologik lugʻatlari shular jumlasidan.[9]

Filologik lugʻatlar oʻz-oʻzidan maʼlumki, bir tilli, ikki tilli va koʻp tilli lugʻatlarga boʻlinadi. Bir tilli lugʻatlar soʻz va iboralar bitta tilda boʻladi hamda turli maqsadlarga qaratilgan boʻladi. Bunday lugʻatlar, ingliz tilida ham, rus tilida ham ommalashgan. “Merriam-webster”, “Collins english dictionary”, “Macmillan english dictionary” izohli lugʻatlari bunga misol boʻladi. Bugungi kunda talab oshgani bois aynan yuqorida sanab oʻtilgan lugʻatlarning onlayn shaklda olib boriladigan turlari ham ishlab chiqilgan.

Ikki tilli lugʻatlarda bir tildagi soʻz va iboralar boshqa tilga tarjima qilinadi. Shu sababdan bunday lugʻatlar tarjima lugʻatlar deb yuritiladi.[10]

Ikki tilli lugʻatlarga misol tariqasida Sh.Boʻtayev va A.Irisqulov tomonidan “Inglizcha-oʻzbekcha va oʻzbekcha-inglizcha lugʻati”,[11] professor V.V.Reshetovning “Ruscha-oʻzbekcha lugʻat” i[12] kabi manbalarni keltirishimiz mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar roʻyhati**

1. Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. – Т.: Ўқитувчи, 1992. – Б. 112.
2. Сафаров Ш. Семантика. –Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2013. –Б. 270
3. Маҳмудов Н. Оламнинг лисоний манзараси ва сўз ўзлаштириш // Ўзбек тили ва адабиёти. 2015. №3. – Б.4
4. Шарипова Ў., Йўлдошев И.. Тилшунослик асослари. – Т., 2006. – Б. 70
5. Ступин Л. Лексикография английского языка: учеб. пособие. – М.: Высшая школа, 1985

**RAUF PARFI IJODINING  
MA'NAVIY-MA'RIFIY AHAMIYATI**  
Respublika ilmiy-nazariy anjumani

6. Щерба Л. Языковая система и речевая деятельность. – 2-е изд., стереотип. – М.: Едиториал УРСС, 2004. –С. 308
7. Шарипова Ў., Йўлдошев И. Тилшунослик асослари. – Т., 2006. – Б. 71.
8. Сайфуллаева Р.Р., Менглиев Б.Р., Боқиева Г.Ҳ., Қурбонова М.М., Юнусова З.Қ., Абузалова М.Қ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Ўқув қўлланма. – Тошкент: 2006. — Б. 125
9. Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Boqiyeva G.H va boshqalar — Hozirgi o‘zbek adabiy tili: o‘quv qo‘llanma // Toshkent 2009, B.125-126
10. <https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/tilshunoslik/leksikografiya-6>
11. Sh.Bo‘tayev va A.Irisqulov — Inglizcha-o‘zbekcha va o‘zbekcha-inglizcha lug‘ati – Toshkent.2009, B.834
12. V.V.Reshetov — “Ruscha-o‘zbekcha lug‘at – Toshkent. 1957